



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№4(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 520 sahifa,
13-aprel, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Alohida ehtiyojga muhtoj bolalarga matematika darslarida integratsion yondashuvni amalga oshirish	10
Mamadjanova Ma'muraxon Kadirjanovna	
O'quvchilarda raqamli madaniyatni shakllantirishning nazariy asoslari.....	13
Boltayeva Go'zal Komilovna	
Inkluziv ta'lim sharoitida o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini aniqlash metodologiyasi	21
D. Sh. Jo'rayeva, J. A. Jovliyev	
Bolalarda leksik-grammatik nutq kamchiliklarini bartaraf etishda kontekstli texnologiyalardan foydalanish	25
Abdullayeva Yoqutjon Qalandar qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi	30
Abduvaliyeva Sabina Kurbonali qizi	
O'g'il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashning pedagogik-psixologik asoslari.....	35
Aripov Shokirjon Olimovich, Raxmatillayeva Sug'diyona Muhammadjon qizi	
Pedagogik intuitsiyani rivojlantirishga yo'naltirilgan zamonaviy metodikalar	39
Axmedov Jaloliddin Oribovich	
The Impact of AI-Generated English Learning Materials Based on Uzbek Rural Life on the Learning Motivation of Rural Students.....	42
Baxramova Malika Muzaffarovna	
Raqamli kutubxonalarda sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish texnologiyalari va imkoniyatlari	47
Choriyeva Zarina Anvarbek qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida orfografik savodxonlikni shakllantirishning nazariy-pedagogik asoslari ...	50
D. Teshaboyev, M. Sotvoldiyeva	
Oliy ta'limda tblt metodik modeli asosida baholash tizimini takomillashtirish	53
Djurayeva Nargiza Kudratillayevna	
Yangi O'zbekiston ta'lim tizimida pedagogik etikaning rivojida xorijiy mamlakatlar tajribasi.....	59
Dushayeva Nazokat Sharofiddinovna	
Uilyam Shekspir tragediyalarining o'zbek adabiyotidagi o'rni.....	62
Ergasheva Mehriyona	
Qizlarning oilaviy kompetensiyasi uchun ijodiy pedagogika: Koreya dizayn ta'limi modelini O'zbekiston kontekstiga moslash.....	65
G'ayratova Mohidil Zafar qizi	
Jismoniy tarbiya darslarida va darsdan tashqari mashg'ulotlarda umumrivojlantiruvchi mashqlardan foydalanish metodikasi	69
Maksetova Nurjamal Kuatovna	
Integrativ ta'lim muhitida bo'lajak surdopedagoglarning metodik kompetensiyalarini shakllantirish	72
Malikova Xurshida Ikramovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarda ko'p uchraydigan tovush talaffuzi kamchiliklari va ularni bartaraf etishda lopedik usullar.....	75
Moxirabonu G'aniyeva Adxam qizi	
Talabalarga an'anaviy xonandalik ijrochiligini o'rgatishning pedagogik yondashuvlari.....	78
Muxammadova Ozoda Muzrabovna	
Hayotiy sifat tushunchasini psixologik mazmuni.....	82
N. G. Pulatova	
Inklyuziv ta'lim sharoitida alohida ehtiyojlarga ega o'quvchilarni qo'llab-quvvatlashning kompleks yondashuvlari	85
Nazarova Dildora Asatovna, Abdurashidova Feruza Qaxramonovna	
Inklyuziv ta'lim tizimida o'qituvchining ko'p qirrali pedagogik faoliyati va uning nazariy asoslari	89
Nazarova Dildora Asatovna, Axmedova Aziza Temurovna	



Xo'ja ahmad Yassaviy e'tiqod tarbiyasi haqida.....	93
<i>Norova Sevara Uyg'un qizi</i>	
Matritsa va uning determinanti mavzusini o'qitish orqali bo'lajak iqtisodchilarning analitik tafakkurini rivojlantirish texnologiyalari.....	97
<i>Nuriddinov Jalolxon Tursunboy o'g'li, Otaboyev Muxsinjon Muqimjonovich</i>	
Odam anatomiyasi darslarida interfaol va multimedia vositalaridan foydalanish yo'llari.....	104
<i>Nurmatov Norqobil Jo'rayevich, Qo'chqorova Moxira Dilmurod qizi, Boxodirova Nilufar Ikrom qizi</i>	
AQSh ta'lim tizimining o'ziga xos jihatlari va bugungi kundagi rivojlanishi.....	110
<i>Orishev Jamshid Bahodirovich</i>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida nutqiy kompetensiyalarini shakllantirishda xorijiy ta'limi tajribalari.....	116
<i>Pardayeva Gulbahor Jalg'ashovna</i>	
Kreativ ta'lim texnologiyalarining pedagogik mohiyati.....	119
<i>Sariboyev Nurali Abdunazarovich</i>	
Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning zamonaviy pedagogik tizimdagi o'rni.....	122
<i>Siddiqov Azamat Muhammadjon o'g'li</i>	
Konstruktiv yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida 4K ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi.....	126
<i>Sobirova Sarvinoz Quvondiqovna</i>	
Criteria of Scientific Activity Implementation of Physical Culture Education Students.....	133
<i>Sapayev Ruzmat Radjapovich</i>	
O'smir yoshdagi o'quvchilarning ma'naviy ehtiyojlarini shakllantirishning nazariy asoslari.....	136
<i>Tilovova Qizlarxon Ishpulat qizi</i>	
PIRLS tadqiqotida so'rovnomalarning qamrov doirasida maktab muhiti.....	141
<i>To'qliyeva Matluba Boqiyevna</i>	
Onlayn til o'rganish platformalarining esl o'quvchilarining og'zaki nutq ishonchi (speaking confidence) ga ta'siri.....	146
<i>Tojiboyeva Shohistaxon, Omonova Nargiza</i>	
Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutqni rivojlantirishda kommunikativ o'yinlarning ahamiyati.....	151
<i>Toshpo'latova Sevinch O'ral qizi</i>	
Maktab o'quvchilarining jismoniy sifatlarini tarbiyalashning samarali uslublari.....	155
<i>Turdiyev Azam Xasanovich</i>	
O'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishda xalqaro baholash tizimini tatbiq etish imkoniyatlari.....	158
<i>Turobov Mamarajab Sodiq o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'limda ijodiy va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish.....	163
<i>Umirzoqova Surayyo Xudoyberdiyevna</i>	
Talabalarda perspektiv tasvir bajarishga oid ko'nikmani shakllantirishda CAD dasturlaridan amaliy foydalanish imkoniyatlari.....	165
<i>Valiyev A'zamjon Nematovich, Toxirov Sardorbek Muzaffar o'g'li</i>	
Duduqlanishni bartaraf etishda qo'llaniladigan usullar va vositalar.....	173
<i>Xasanova Barnoxon Abdusattor qizi</i>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning yozma nutqini rivojlantirish usullari.....	176
<i>Xudoyberdiyeva Dildora Nazarjon qizi, Mambetova Lobar Mirzavali qizi</i>	
Duduqlanishga ega bolalar nutqini rivojlantirishda kompleks korreksion ishlar tizimi.....	179
<i>Xusanova Nozimaxon Zuxriddin qizi</i>	
Sirdaryo viloyatida tabiat va mehnat jarayonlarining tasviriy san'at orqali estetik va ekologik ifodasi.....	182
<i>Yorlaqova Malika Ahmad qizi</i>	
The Relevance of Artificial Intelligence in Teaching the English Language.....	186
<i>Yusupova Gulnoza Mirzoyevna</i>	
Umumta'lim maktabida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kuzatiladigan nutq xususiyatlari.....	189
<i>Zairova Nigora</i>	

Teatr texnologiyalarini maktabgacha ta'limga integratsiya qilishning pedagogik shartlari	193
<i>Abdullayeva Aziza Abdurazzoq qizi, Salimova Dilmira Farxodovna</i>	
Педагогические технологии совершенствования физических качеств как основы здорового образа жизни	197
<i>Журабаев Абдукарим Маматкулович</i>	
Формирование духовно-нравственной компетентности будущих учителей как педагогическая проблема	200
<i>Зокиржонova Ф. Р., Рихситиллаева Д. Р., Меликузиева Ш. А.</i>	
Межкультурный диалог как инструмент воспитания гармоничной личности в школе	203
<i>Махмудхожаев Ориф Бахтиёрovich</i>	
Talaba yoshlarining ma'naviy madaniyatini rivojlantirishda zamonaviy yondashuvlar	205
<i>Xojametov Ajiniyaz Andriyanovich</i>	
Методика формирования познавательных интересов у младших школьников в процессе выполнения творческих заданий на уроках русского языка	207
<i>Юлдашева Тахмина Бону Гайратовна</i>	
Raqamli ta'lim texnologiyalari asosida ingliz tili darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarini tinglab tushunishga o'rgatish usullari.....	210
<i>Abdurasulova Guljaxon Nabijon qizi</i>	
Fan va tabiatshunosligi asoslari mashg'ulotlarida tajribalar orqali bolalarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi	215
<i>Abdusamatova Nargiza Jamolidinovna, Xudayberganova Muqaddam Abdurashitovna</i>	
Bakteriofaglar tuzilishi va turlari (T-faglar) va ularning mikrobiekotizimdagi o'rni mavzusini o'qitish metodikasi	222
<i>Abdunazarova Zulayxo Sharifqulovna, Xo'janazarov O'ktam Eshtemirovich, Samikova Sevinch Toshtemir qizi</i>	
Bulung'ur doston ijrochiligining musiqiy xususiyatlari va ularni ta'lim jarayonida o'rgatishning pedagogik asoslari	227
<i>Babajanov Baxodir Allaberganovich</i>	
Activation of Students' Learning Activities Using Didactic Games	230
<i>Daminova Munajat Abduvoxobovna</i>	
Bolalar ensiklopediyasi vositasida tarbiyalanuvchilarning atrof-olam haqidagi tasavvurlarini shakllantirishning metodik shart-sharoitlari	234
<i>Davlatova Guljaxon Kamoliddin qizi</i>	
Innovatsion yondashuv asosida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish	241
<i>Esanova Ro'shana Qurbonazarovna</i>	
Kreativ tafakkurning texnik muammolarni samarali hal qilishdagi o'rni va ahamiyati	248
<i>Imanov Baxtiyor Berdiyevich</i>	
Adabiyot va teatr san'ati vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarda ijobiy xulq-motivlarni shakllantirishda faollik markazlarining didaktik imkoniyatlari.....	253
<i>Inomova Dilnavoz Muzafar qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim muassasalari pedagog xodimlari mehnatini huquqiy tartibga solishning xususiyatlari	258
<i>Matekeyeva Bibinaz Mirjan qizi</i>	
Badiiy-estetik qadriyatlar va ularning o'ziga xosliklari.....	264
<i>Ostonova Gulrux Shuxrat qizi</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga sharq allomalarining kitobxonlikka munosabatini tarixiy yondashuv asosida o'rgatishning ijtimoiy-tarixiy, zamonaviy va pedagogik xususiyatlari	268
<i>Parpibayeva Zulayho Rahimjon qizi</i>	
AI-Xorazmiyning ilmiy merosi vositasida talabalarda analitik tafakkurni rivojlantirishning metodologik asoslari.....	272
<i>Qaxxorova Shaxnoza Abduvasit qizi</i>	
Musiqiy-badiiy did tarbiyasining ilmiy nazariy asoslari.....	276
<i>Rayimova Gavhar Karim qizi</i>	



Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy-muloqot kompetensiyasini rivojlantirishda interfaol metodlardan foydalanish.....	279
<i>To'laboyeva Iqbolxon Olimjanovna</i>	
Malakaviy amaliyot orqali bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy kompetentligini rivojlantiruvchi texnologiyalari....	282
<i>Tohirjonova Hulkaroy Baxodir qizi</i>	
Bolalar musiqa va san'at maktabi o'quvchilariga chang cholg'usida Shashmaqom kuylarini o'rgatishning pedagogik yondashuvlari.....	288
<i>Toshpo'lotova Zulxumor Davlatboy qizi</i>	
Talabalarda axborot madaniyatini shakllantirishning xususiyatlari	292
<i>Usmonov Sh. F.</i>	
The Formation of Human Capital In Education: A Pedagogical and Economic Analysis	297
<i>Uzoqova Shohida Mirzamurod qizi</i>	
“Птицы во рту” Саманты Швоблин: каннибализм нежности и зооморфный код магического реализма	302
<i>Каримов Зиёахмад Алишер угли</i>	
Формирование профессиональных качеств будущих учителей через активизацию учебной деятельности студентов с использованием дидактических игр в педагогических вузах.....	307
<i>Расулова Исмигуль, Якубова Зухра</i>	
Bolalar adabiyotini rivojlantirishda innovatsion yondashuv	311
<i>Mirzayeva Nigora Bozorovna</i>	
Issues of Developing Communicative Competence in Future Teachers from the Point of View of an Andragogical Approach.....	314
<i>Nishanova Mastura Khafizovna</i>	
Raqamli va innovatsion ta'lim texnologiyalari vositasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida adabiy kompetensiyalarni rivojlantirish modeli.....	317
<i>Islomova Xafiza Azamatovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning testologik kompetentligini rivojlantirish muammosining ilmiy-nazariy asoslari	324
<i>Nuraliyev Islom Saidaliyevich</i>	
Концепт глаза в русской и узбекской лингвокультуре.....	328
<i>Кодирова Дилдора Абдуназар кизи, Асанов Руслан Арсенович</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilida og'zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishda STEAM texnologiyasi asosida mashq tizimini takomillashtirish.....	334
<i>Eshonova Dilnoza Abrorovna</i>	
Boshlang'ich maktabda tabiiy fanlarni o'qitishning integratsiyalashgan dars shakllari va zamonaviy vositalari	337
<i>Bekmetova Shoxida Qodirberdiyevna, Nishonxo'jayeva E'zoza Nig'mon qizi</i>	
Zamonaviy ta'lim sharoitida bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarining deontologik kompetensiyasiga qo'yiladigan talablar.....	342
<i>Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li</i>	
Zoologiya darslarida “Qushlar sinfi” mavzusini o'qitishning didaktik tamoyillari va metodik imkoniyatlari....	347
<i>Xaqberdiyeva Shoiratursunaliyevna, Norboyeva Naima Begali qizi</i>	
O'quv tayyorlov guruhi gandbolchilarida mashg'ulot yuklamalarini rivojlantirish samaradorligi	352
<i>Shermuxamedova N.N., Saylavova Aida Alisher qizi</i>	
Ikkinchi tartibli differensial tenglamalar uchun lokal chegaraviy masalalar: nazariya va tatbiqlari.....	356
<i>Musurmanova Nilufar Allamurat qizi</i>	
“Boychechak” qo'shig'ida ajdodlar turmush tarzi motivlari.....	360
<i>S. Matchanov, U. F. Xabibullayev</i>	
Фразеологизмы русского языка как зеркало национальной картины мира: лингвокультурологи-ческий анализ и методика преподавания в современной школе	365
<i>Мустанов Убайдулло Зулпанович</i>	
Oliy ta'limda udl yondashuvi asosida inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirish.....	369
<i>Yunusova Xusnora Shuxrat qizi</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	Art-pedagogik vositalar asosida talabalarning kasbiy mobilligini rivojlantirish..... 372 <i>Usmonova Qumriniso Saydaliyevna</i>
	Boshlang'ich ta'limda didaktik o'yinlarning klassifikatsiyasi, pedagogik funksiyalari va raqamli ta'lim muhiti sharoitida integratsiyalashuvi..... 375 <i>Ortiqboeva Zumradxon Xasanboy qizi</i>
	Ta'lim jarayonida gamifikatsiya texnologiyasining qo'llanilishi 378 <i>Abdufatayev Sherjaxon Abduazimovich, Yaxshiboyev Temur-Malik Erkin o'g'li</i>
	Interaktiv o'yinlar asosida dasturlashni o'qitish: "Kod bo'lagini top" o'yinining pedagogik samaradorligi 381 <i>Xudayberganov Yashin Komilovich, Xonto'rayev Ibroxim Abdikamol o'g'li</i>
	Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslari 385 <i>Temirova Shoxsanam Komilovna</i>
	Kreativ kompetensiyani rivojlantirishda akademik muhit va shaxslararo munosabatlarning psixologik mexanizmlari 389 <i>Abdurazzaqov Shuxratbek Zafarjon o'g'li</i>
	Talaba yoshlarda ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishning pedagogik mexanizmlari 392 <i>Fayziyeva Muqaddas Akbar qizi</i>
	STEAM ta'lim texnologiyasining mohiyati va uni boshlang'ich ta'limda qo'llash imkoniyatlari 397 <i>Abrorxonova Kamola Abrorxon qizi, Kamoljonova Iroda Niyazjon qizi</i>
	Zamonaviy yoshlar dunyoqarashining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari 400 <i>Abdullayeva Nilufar Sadikjanovna</i>
	An'anaviy xonandalik ijrochiligida ovoz tarbiyasining shakl, usul va metodlari 403 <i>Abdusalomova Iroda Xabibulloyevna</i>
	Tibbiyot talabalari orasida kasbiy motivatsiyaning psixologik omillari 407 <i>Abduxamidov Abbas Muhiddin o'g'li, Rajabov Temurbek Baxtiyor o'g'li, Boboyeva Maxsuda Ataxanovna</i>
	Metakognitiv yondashuv asosida talabalar irodaviy sifatlarini rivojlantirishning kognitiv va psixologik asoslari 410 <i>Axatov Yo'ldoshjon Hamzayevich</i>
	A Model for Developing Transversal-Methodological Competencies in Future Educators 415 <i>Ergasheva Barno Ziyavitdin kizi</i>
	Historical Development of Project-Based Learning in Language Teaching 419 <i>Fayziyeva Ozoda Erkin Kizi</i>
	Axloq shakllanishining psixologik xususiyatlari: shaxs rivojlanishida ichki nazorat va motivatsiya mexanizmlari 423 <i>Ibaydayeva Munisa Aybek qizi</i>
	Neyropedagogik texnologiyalar asosida emotsional kompetentlikni rivojlantirishning innovatsion didaktik modeli..... 427 <i>Mirzaraxmonova Shaxnoza Mirzaaxmadovna</i>
	O'zbekistonda maktabgacha ta'limga xorijiy tajribalarni integratsiya qilish: Yaponiya davlati misolida 432 <i>Narimanova Saida Narimon qizi</i>
	Ijtimoiy tarmoqlarda yolg'on ma'lumotlar tarqalishining psixologik va ijtimoiy mexanizmlari hamda unga qarshi kurashish muammolari 436 <i>Nurmatov A. N.</i>
	Metodik savodxonlikni rivojlantirishning pedagogik va metodologik jihatlari (Biologiya fani misolida) 439 <i>Rahimova Mahliyo Akramovna</i>
	Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlari va ularning matematik tafakkurini rivojlantirish imkoniyatlari..... 444 <i>Shabatova Rabig'a Janasbay qizi, Muxitdinova Nodira Mamalatifovna</i>
	Oliy ta'lim muassasalarida talabalar ommaviy sportini rivojlantirishning pedagogik tizimini takomillashtirish konsepsiyasi..... 448 <i>Ummatov Nozim Raimjonovich</i>
	O'quv jarayonida differensial topshiriqlarning o'rni va ularning ahamiyati 453 <i>Xoldarova Irodaxon Valijonovna, Xakimova Ma'mura Davlatjon qizi</i>



Biologiya ta'limida zamonaviy innovatsion texnologiyalarning o'rni	457
<i>Xaqberdiyeva Shoira Tursunaliyevna</i>	
Genetika mavzularini o'qitishda tahliliy faoliyatni tashkil etish metodlari, vositalari va shakllari.....	461
<i>Xaqberdiyeva Shoira Tursunaliyevna, Dosov Rustam Alisherovich</i>	
Hayvonlarning xilma- xilligi mazvusini o'qitishda multimedia, 3D format modellari va virtual loyabatoriya asosida o'qitish metodikasi	466
<i>Xaqberdiyeva Shoira Tursunaliyevna, Murodullayeva Sarvinoz O'tkirbek qizi</i>	
Tog'ayli baliqlar mavzusini o'qitishning didaktik tamoyillari, pedagogik shart-sharoitlari va metodik yondashuvlari.....	473
<i>Xaqberdiyeva Shoira Tursunaliyevna, Qodirova Nurshoda Olim qizi</i>	
A Comparative Analysis of Lexical Transformations in Abdulla Qahhor's Prose "Tolka"	478
<i>Kasimova Nafisa Farhodovna, Safarova Maftuna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilari tarbiyasida ota-onalar bilan hamkorlikni tashkil etish metodikasi	482
<i>Fayziyeva Madinabonu Sohibjon qizi</i>	
Gnosiologik yondashuv asosida mustaqil ta'lim jarayonini loyihalash.....	485
<i>Xidirova Dildora Zayniddinovna</i>	
Nemis tilini o'qitishda sun'iy intellekt asosidagi ta'lim vositalari.....	491
<i>Xudoyberdiyeva Zumrat Xudayberdiyevna</i>	
Kasbiy nutqda til me'yorlariga rioya qilish muammolari.....	495
<i>Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna</i>	
Teatr texnologiyalarini maktabgacha ta'limga integratsiya qilishning pedagogik shartlari.....	498
<i>Abdullayeva Aziza Abdurazzoq qizi, Salimova Dilmira Farxodovna</i>	
Теоретические и практические аспекты развития одарённых студентов	502
<i>Байбаева Мухайё Худойбергеновна, Зайниддинова Хилола Абдулвахоб кизи</i>	
Организация проектной деятельности во внеурочной работе по математике при изучении темы "дроби" в начальных классах	508
<i>Бахытбаева Шахнозбану Махмуд кызы, Садыкова Альбина Венеровна</i>	
Традиционные методы развития навыка говорения в обучении иностранному языку	511
<i>Давронбекова Фарангис Давроновна</i>	
Описание скоростных качеств футболистов	517
<i>Мадаминов Орибджан Нишанбаевич</i>	



NEYROPEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA EMOTSIONAL KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION DIDAKTIK MODELI

Mirzaraxmonova Shaxnoza Mirzaaxmadovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Alfraganus universiteti dotsenti

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo'lajak pedagoglarda emotsional kompetentlikni rivojlantirishda neyropedagogik texnologiyalarning didaktik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, miyaning kognitiv-emotsional mexanizmlariga asoslangan innovatsion didaktik model ishlab chiqiladi. Mazkur model ta'lim jarayonida limbik tizim, dopamin motivatsiya mexanizmi va prefrontal korteks faoliyatini faollashtirish orqali o'quvchilarda emotsional barqarorlik, empatiya hamda refleksiv fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari neyropedagogik yondashuvlar an'anaviy didaktik tizimlarga nisbatan samaraliroq ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: neyropedagogika, emotsional kompetentlik, didaktik model, limbik tizim, dopamin, motivatsiya, innovatsion ta'lim, kognitiv rivojlanish.

Abstract: This article analyzes the didactic potential of neuropedagogical technologies in developing emotional competence in future teachers. It also proposes an innovative didactic model based on the cognitive-emotional mechanisms of the brain. The model facilitates the development of emotional stability, empathy, and reflective thinking in students by activating the limbic system, dopamine-based motivational mechanisms, and the prefrontal cortex during the educational process. The findings indicate that neuropedagogical approaches are more effective than traditional didactic systems.

Key words: neuropedagogy, emotional competence, didactic model, limbic system, dopamine, motivation, innovative education, cognitive development.

Аннотация: В данной статье анализируется дидактический потенциал нейропедагогических технологий в развитии эмоциональной компетентности у будущих педагогов. Также разработана инновационная дидактическая модель, основанная на когнитивно-эмоциональных механизмах головного мозга. Данная модель способствует развитию эмоциональной устойчивости, эмпатии и рефлексивного мышления у обучающихся за счёт активации лимбической системы, дофаминового мотивационного механизма и префронтальной коры в процессе обучения. Результаты исследования показывают, что нейропедагогические подходы более эффективны по сравнению с традиционными дидактическими системами.

Ключевые слова: нейропедагогика, эмоциональная компетентность, дидактическая модель, лимбическая система, дофамин, мотивация, инновационное образование, когнитивное развитие.

KIRISH

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim tizimi oldida nafaqat bilim berish, balki shaxsning kompleks rivojlanishini ta'minlash vazifasi turibdi. Zamonaviy pedagogik paradigmalarda o'quvchining kognitiv (bilish), affektiv (emotsional) va ijtimoiy rivojlanishi bir butun tizim sifatida qaralmoqda. Shu jihatdan, emotsional kompetentlikni shakllantirish ta'lim sifatini oshirish va pedagogik jarayon samaradorligini ta'minlashning muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

Emotsional kompetentlik – bu shaxsning o'z emotsiyalarini anglash, boshqarish, boshqalarning emotsional holatini tushunish (empatiya) hamda ijtimoiy vaziyatlarga adekvat javob berish qobiliyatidir. Bo'lajak pedagoglar uchun ushbu kompetensiya alohida ahamiyatga ega bo'lib, u o'quvchilar bilan samarali muloqot o'rnatish, sinfdagi psixologik muhitni boshqarish hamda konfliktli vaziyatlarni konstruktiv hal etish imkonini beradi.

So'nggi yillarda ta'lim jarayoniga neyropedagogik yondashuvlarning joriy etilishi inson miyasining o'rganish mexanizmlarini hisobga olgan holda ta'limni optimallashtirish imkonini bermoqda. Neyropedagogika ta'limni faqat didaktik jarayon sifatida emas, balki neyrofiziologik va kognitiv jarayonlar majmui sifatida talqin qiladi. Bu yondashuvga ko'ra, o'quv jarayonida limbik tizim (emotsiyalarni boshqarish markazi), prefrontal korteks (tahlil va qaror qabul qilish) hamda dopamin tizimi (motivatsiya va mukofot mexanizmi) faol ishtirok etadi.

Shu nuqtayi nazardan, emotsional kompetentlikni rivojlantirish jarayonini neyropedagogik texnologiyalar bilan integratsiya qilish zarurati paydo bo'lmoqda. Chunki an'anaviy didaktik yondashuvlar ko'pincha bilish jarayoniga e'tibor qaratib, emotsional va neyrofiziologik omillarni yetarli darajada hisobga olmaydi. Natijada o'quvchilarda motivatsiyaning pasayishi, stress holatining ortishi va o'zlashtirish samaradorligining kamayishi kuzatiladi.

Shu sababli, mazkur maqolada bo'lajak pedagoglarda emotsional kompetentlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan neyropedagogik texnologiyalar asosidagi innovatsion didaktik model ishlab chiqish va uning ilmiy asoslarini yoritish maqsad qilingan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Emotsiya va bilish jarayonlarining o'zaro bog'liqligi masalasi zamonaviy neyrofan va pedagogik psixologiya tadqiqotlarining markaziy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. A. Immordino-Yang (2016) tadqiqotlarida emotsional jarayonlar o'quv faoliyatining ajralmas qismi ekanligi, ya'ni "biz emotsiyasiz fikrlay olmaymiz va fikrsiz emotsiya shakllanmaydi" degan g'oya ilgari suriladi. Ushbu yondashuv ta'lim jarayonida emotsional faollikning kognitiv rivojlanish bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatadi.

R. Sousa (2017) o'z tadqiqotlarida miya faoliyati va o'rganish jarayonini tahlil qilib, o'quvchilarda stress darajasining yuqoriligi hipokamp faoliyatini susaytirishini va natijada xotira jarayonlariga salbiy ta'sir ko'rsatishini isbotlagan. Aksincha, ijobiy emotsional muhit dopamin va serotonin ajralishini kuchaytirib, o'rganish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Tokuhama-Espinosa (2020) esa neyroedukatsiya konsepsiyasini ishlab chiqib, ta'lim jarayoni miyaning tabiiy ishlash qonuniyatlariga moslashtirilishi zarurligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, samarali o'qitish uchun uch asosiy omil muhim: e'tibor (attention), emotsiya (emotion) va takrorlash (repetition).

Shuningdek, zamonaviy neyropsixologik tadqiqotlar limbik tizimning emotsional reaksiyalarni boshqarishdagi rolini, prefrontal korteksning esa o'zini boshqarish va refleksiv fikrlashdagi ahamiyatini tasdiqlaydi. Dopamin tizimi esa motivatsiya va mukofot mexanizmi orqali o'quv faoliyatini faollashtiradi.

Mahalliy ilmiy adabiyotlarda ham ta'lim jarayonida psixologik va neyropedagogik yondashuvlarni integratsiya qilish masalalari o'rganilmoqda. Tadqiqotlarda o'qituvchilarning emotsional kompetentligi pedagogik samaradorlikka bevosita ta'sir ko'rsatishi, stressni boshqarish ko'nikmalari esa kasbiy barqarorlikni ta'minlashi qayd etilgan.

Biroq mavjud ilmiy ishlarda emotsional kompetentlikni rivojlantirish jarayonini neyropedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashtirgan yaxlit didaktik model yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Aksariyat tadqiqotlar yoki faqat psixologik yondashuvga, yoki faqat didaktik metodlarga asoslangan bo'lib, ularning integrativ (neyrodidaktik) modeli ilmiy jihatdan to'liq shakllanmagan.

Shu bois, mazkur tadqiqotda emotsional kompetentlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan neyropedagogik texnologiyalar asosidagi innovatsion didaktik modelni ishlab chiqish dolzarb ilmiy muammo sifatida qaraladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda emotsional kompetentlikni shakllantirish jarayonini ilmiy asosda o'rganish maqsadida kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqotning nazariy va metodologik asosini tizimli yondashuv, qiyosiy pedagogik tahlil, modellashtirish hamda neyropedagogik yondashuv integratsiyasi tashkil etdi. Tizimli tahlil orqali emotsional kompetentlikni shakllantiruvchi omillar - kognitiv, emotsional, motivatsion va ijtimoiy komponentlar o'zaro bog'liqlikda o'rganilib, ularning yaxlit funksional tizim sifatidagi ishlashi aniqlandi.

Qiyosiy pedagogik tahlil yordamida O'zbekiston, MDH va xorijiy ilmiy maktablarda emotsional kompetentlikni rivojlantirishga doir yondashuvlar qiyoslanib, ularning nazariy-metodik o'xshashliklari va farqli jihatlari ilmiy asosda yoritildi. Modellashtirish usuli asosida emotsional kompetentlikni rivojlantirishning strukturaviy-funksional modeli ishlab chiqilib, unda didaktik vositalar, psixologik mexanizmlar va neyrobiologik jarayonlar o'zaro integratsiyalashgan tizim sifatida ifodalandi.

Shuningdek, tadqiqotda neyropedagogik yondashuv integratsiyasi alohida metodologik asos sifatida qo'llanilib, ta'lim jarayonida Limbik tizim va Prefrontal korteks funksional o'zaro ta'siri emotsional va kognitiv jarayonlarning uyg'unlashuvi nuqtayi nazaridan tahlil qilindi. Ushbu yondashuv emotsional kompetentlikni nafaqat psixologik-pedagogik, balki neyrobiologik asoslarda ham izohlash imkonini berdi hamda tadqiqotning ilmiy ishonchliligi va metodologik izchilligini ta'minladi.



Mazkur tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan innovatsion didaktik model bo'lajak pedagoglarda emotsional kompetentlikni neyropedagogik texnologiyalar asosida tizimli rivojlantirishga yo'naltirilgan integral strukturaviy-funksional yondashuv sifatida talqin etiladi. Modelning asosiy maqsadi ta'lim jarayonida kognitiv va emotsional tizimlar o'rtasidagi funksional muvozanatni ta'minlash, shuningdek, pedagogik faoliyatda yuqori darajadagi emotsional barqarorlik, reflektivlik va ijtimoiy moslashuvchanlikni shakllantirishdan iboratdir.

Model o'zaro uzviy bog'langan to'rt asosiy tarkibiy blokdan tashkil topgan bo'lib, har bir blok o'zining neyrobiologik, didaktik va neyroedukatsion funksiyalariga ega kompleks tizim sifatida ishlaydi.

Birinchi - neyrobiologik asos bloki emotsional va kognitiv jarayonlarning fiziologik negizini tashkil etadi. Ushbu blokda Limbik tizim emotsional reaksiyalarni generatsiya qiluvchi markaz sifatida, Prefrontal korteks esa yuqori darajadagi ijro funksiyalari, ya'ni qaror qabul qilish, tahlil va emotsional nazoratni amalga oshiruvchi kognitiv boshqaruv tizimi sifatida faoliyat yuritadi. Shuningdek, dopamin tizimi motivatsion faollikni ta'minlab, o'quv faoliyatiga ichki ehtiyoj va qiziqishni kuchaytiruvchi neyrokimyoviy mexanizm sifatida xizmat qiladi. Ushbu blokning asosiy vazifasi emotsional reaksiyalarni biologik darajada tartibga solish hamda motivatsion holatni optimallashtirishdan iborat.

Ikkinchi - didaktik texnologiyalar bloki ta'lim jarayonining amaliy-pedagogik komponentini ifodalaydi va o'quv faoliyatini faollashtirishga xizmat qiladi. Ushbu blok tarkibiga interaktiv o'qitish metodlari, gamifikatsiya elementlari, vizual va audio vositalar hamda simulyatsion treninglar kiradi. Mazkur vositalar o'quvchilarda emotsional qiziqish, kognitiv faollik va ijtimoiy ishtirokni kuchaytirib, neyron tarmoqlarning plastiklik darajasini oshirishga yordam beradi. Didaktik vositalar orqali ta'lim jarayoni passiv axborot qabul qilishdan faol emotsional-kognitiv tajriba maydoniga aylantiriladi.

Uchinchi - neyroedukatsion strategiyalar bloki o'quv jarayonini miyaning ishlash qonuniyatlariga moslashtirishga yo'naltirilgan maxsus metodik tizim sifatida qaraladi. Ushbu blok emotsional stimulyatsiya, stressni kamaytirish texnikalari, diqqatni boshqarish mashqlari hamda refleksiya va metakognitsiya jarayonlarini o'z ichiga oladi. Mazkur strategiyalar orqali o'quvchilarda optimal neyrokognitiv holat shakllantirilib, o'rganish samaradorligi oshiriladi hamda emotsional zo'riqish darajasi kamaytiriladi. Bu esa prefrontal korteks faoliyatining barqaror ishlashiga sharoit yaratadi va limbik tizimning haddan tashqari reaktivligini muvozanatlashtiradi.

To'rtinchi - emotsional kompetentlik rivoji bloki modelning yakuniy natijaviy komponenti sifatida namoyon bo'lib, shaxsning shakllangan kompetensiyalarini ifodalaydi. Ushbu blok empatiya, emotsional barqarorlik, o'zini boshqarish hamda ijtimoiy moslashuv kabi asosiy kompetensiyalarni qamrab oladi. Mazkur kompetensiyalar integrativ xarakterga ega bo'lib, ular neyrobiologik faollik, didaktik ta'sirlar va neyroedukatsion strategiyalar o'zaro uyg'unlashuvi natijasida shakllanadi. Natijada bo'lajak pedagoglarda kasbiy faoliyatga tayyorlik, stressga chidamlilik va kommunikativ samaradorlik darajasi sezilarli darajada oshadi.

Umuman olganda, ishlab chiqilgan innovatsion didaktik model emotsional kompetentlikni rivojlantirish jarayonini tizimli, bosqichma-bosqich va neyrobiologik asoslangan integrativ jarayon sifatida talqin etadi. Modelning ilmiy yangiligi uning emotsional va kognitiv tizimlarni yagona neyropedagogik platformada birlashtirishga asoslanganligida namoyon bo'ladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bo'lajak pedagoglarda emotsional kompetentlikni rivojlantirish jarayoni faqat an'anaviy didaktik metodlar orqali emas, balki neyropedagogik yondashuvlar bilan integratsiya qilinganda yanada samarali natijalar beradi.

Birinchidan, tadqiqotda asoslangan neyrobiologik komponentlar - limbik tizim, prefrontal korteks va dopamin tizimining o'zaro uyg'un faoliyati emotsional va kognitiv jarayonlarning integratsiyasini ta'minlashi aniqlandi. Xususan, limbik tizim emotsional reaksiyalarni shakllantirsa, prefrontal korteks ushbu reaksiyalarni nazorat qilish va boshqarishda muhim rol o'ynaydi. Bu esa o'quvchilarda emotsional barqarorlikni shakllantirishda muhim neyrofiziologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Ikkinchidan, didaktik texnologiyalar blokining joriy etilishi ta'lim jarayonining sifat jihatdan o'zgarishiga olib keladi. Interaktiv metodlar, gamifikatsiya va simulyatsion yondashuvlar orqali o'quvchilar faqat bilim oluvchi emas, balki faol ishtirokchiga aylanadi. Natijada o'quv jarayonida emotsional jalb etilganlik darajasi oshadi va bu neyron aloqalarning mustahkamlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Uchinchidan, neyroedukatsion strategiyalarni qo'llash o'quvchilarda stressni boshqarish, diqqatni jamlash va refleksiv fikrlashni rivojlantirish imkonini beradi. Bu esa ayniqsa zamonaviy ta'lim muhitida dolzarb hisoblanadi, chunki yuqori stress darajasi o'rganish samaradorligini pasaytiruvchi asosiy omillardan biridir. Tadqiqot natijalari stressni kamaytirish texnikalari va emotsional stimulyatsiya metodlari o'quv jarayonining samaradorligini oshirishini tasdiqlaydi.

To'rtinchidan, modelning natijaviy bloki - emotsional kompetentlikning rivojlanishi - barcha oldingi komponentlarning o'zaro uyg'unlashuvi natijasi sifatida shakllanadi. Empatiya, o'zini boshqarish va ijtimoiy moslashuv kabi kompetensiyalar nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki kasbiy samaradorlik uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, tadqiqot shuni ko'rsatdiki, neyropedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonida:

- o'quvchilarning ichki motivatsiyasi oshadi
- emotsional zo'riqish darajasi kamayadi
- bilimlarni o'zlashtirish samaradorligi ortadi
- kommunikativ va refleksiv ko'nikmalar rivojlanadi

Biroq, mazkur modelni amaliyotga joriy etishda ayrim cheklovlar ham mavjud. Jumladan, pedagoglarning neyropedagogik kompetentligini oshirish zarurati, metodik ta'minot yetishmasligi hamda ta'lim tizimida innovatsiyalarni joriy etishga nisbatan konservativ yondashuvlar muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltirishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot doirasida bo'lajak pedagoglarda emotsional kompetentlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan neyropedagogik texnologiyalar asosidagi innovatsion didaktik model ishlab chiqildi va uning ilmiy asoslari tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, emotsional kompetentlikni shakllantirish jarayoni kognitiv, emotsional va neyrobiologik omillarning uzviy integratsiyasi asosida samarali amalga oshiriladi.

Ishlab chiqilgan modelning asosiy ustunligi uning tizimliligi va integrativ xarakterida namoyon bo'ladi. Modelda neyrobiologik asoslar, didaktik texnologiyalar va neyroedukatsion strategiyalar yagona funksional tizim sifatida uyg'unlashtirilib, emotsional kompetentlikning kompleks rivojlanishini ta'minlaydi. Bu esa an'anaviy ta'lim yondashuvlaridan farqli ravishda o'quv jarayonini inson miyasining tabiiy ishlash mexanizmlariga moslashtirish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari shuni tasdiqladiki:

- emotsiya va bilish jarayonlari o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, ularni ajratib o'rganish samarali emas;
- ijobiy emotsional muhit o'quv motivatsiyasini kuchaytiradi va bilimlarni mustahkam o'zlashtirishga yordam beradi;
- stressni boshqarish va refleksiya jarayonlari o'quvchilarning metakognitiv rivojlanishida muhim ahamiyatga ega;
- neyropedagogik texnologiyalar ta'lim samaradorligini oshiruvchi innovatsion vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Shu bilan birga, mazkur model pedagogik amaliyot uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. U:

- bo'lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini oshirishga xizmat qiladi;
- ta'lim jarayonida sog'lom psixologik muhitni shakllantiradi;
- o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi samarali muloqotni rivojlantiradi;
- innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etish uchun metodik asos yaratadi.

Kelgusida mazkur tadqiqot yo'nalishini rivojlantirish uchun quyidagi istiqbolli vazifalar muhim hisoblanadi:

- neyropedagogik texnologiyalarni amaliy tajriba asosida sinovdan o'tkazish;
- emotsional kompetentlikni baholash mezonlarini takomillashtirish;
- pedagoglar uchun maxsus neyropedagogik trening dasturlarini ishlab chiqish;
- raqamli ta'lim muhitida emotsional kompetentlikni rivojlantirish mexanizmlarini chuqur o'rganish.

Xulosa qilib aytganda, ishlab chiqilgan innovatsion didaktik model zamonaviy ta'lim tizimida shaxsga yo'naltirilgan, ilmiy asoslangan va samaradorligi yuqori bo'lgan yondashuv sifatida ahamiyat kasb etadi. U pedagogik faoliyatda emotsional kompetentlikni rivojlantirish orqali ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Fayzullayev M., Dexqonov T. Oila psixologiyasi: farzand tarbiyasida emotsional intellektning ahamiyati // Молодые ученые. - 2025. - № 3(24). - В. 98-101.
2. Fayzullayev M., Xamraqulov M., Lutfidinov M. O'smirlik davrida kognitiv rivojlanishga ta'sir etuvchi omillar // Наука и технология в современном мире. - 2025. - № 4(17). - В. 22-25.
3. Mirzamurodovich F. M. Psychological literacy in adolescents as a factor of socialization // SHOKH LIBRARY. - 2025. - № 1(12).
4. Mirzamurodovich F. M. O'smirlarda psixologik savodxonlikni aniqlashda korrelatsion tahlil // Russian-Uzbekistan Conference. - 2024. - Т. 1. - № 1.
5. Fayzullayev M. M. Psychological literacy and its assessment in youth // Educational Research in Universal Sciences. - 2023. - Т. 2. - № 6. - В. 170-172.
6. Mirzamurodovich F. M. Concepts of formation and development of psychological literacy in continuous education // Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence. - 2023. - Т. 2. - № 5. - В. 495-497.
7. Fayzullayev M. O'smirlarda psixologik savodxonlik konstruksiyalari // Академические исследования в современной науке. - 2023. - Т. 2. - № 19. - В. 129-133.
8. Fayzullayev M. Introducing psychological literacy // Академические исследования в современной науке. - 2024. - Т. 3. - № 22. - В. 32-35.
9. Fayzullayev M. M. Discrimination is a violation of human rights and is a problem for students, especially in times of psychological change // International Conference on Learning and Teaching. - 2022. - Т. 1. - № 4. - В. 429-431.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №4(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.